
HAZRATI ALI MAHALLASINING VOLEYBOL JAMOASI TUMAN BOSQICHI G'OLIBI



“Besh tashabbus olimpiadasi”ning ikkinchi mavsumi doirasida o‘tkazilayotgan musobaqalar bizga yangi iqtidorlar nomini tanishtirmoqda. Tuman bosqichini oxiriga yetkazib, viloyat bosqichiga yo‘llanma olayotgan jamoa va sportchilarning ham nomi aniq bo‘layotir.

Voleybol bo‘yicha ikkinchi sektor jamaolari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bellashuvlar ham o‘ta qizg‘in va murosasiz kechdi. Natijada eng faol jamoa va albatta, tuman hududidagi g‘olib komanda nomi ham aniq bo‘ldi.

Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig‘ini voleybolchi yoshlari barcha tengdoshlaridan ustun ekanliklarini musobaqalar jarayonida isbot etishdi. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoaga esdalik va qimmatbaho sovg‘alar, musobaqa tashkilotchilarining diplomlari ham taqdim etildi.

- Tashkil etib o‘tkazilayotgan barcha musobaqalar yoshlarimizga o‘ziga xos motivatsiya bermoqda. Bugun yoshlarimizning shashti baland va bu ishtiyoq ularni yangidan yangi marralarni zabt etishga chorlayapti, - deydi tuman hokimi o‘rinbosari Ilhom Abdumajidov.

So‘x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-10-25 16:56:32